



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI
O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**



**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
2025-yil 24-25-oktabr**

I

Qarshi-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MENEJMENT
UNIVERSITETI**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR
FANLARNI O‘QITISHNING
DOLZARB MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami

I QISM

Qarshi-2025

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida Axborot texnologiyalari va menejment universitetida 2025-yil 24-25-oktyabr kunlari tashkil etilgan "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plamida Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda raqamli transformatsiya va sun'iy intellektdan foydalanish, raqamli jamiyatda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari, uzluksiz ta'limda inkluziv ta'lim tizimini takomillashtirish tendensiyalari, tarixiy, falsafiy va psixologik muammolarni hal qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati, shuningdek, tilshunoslikning zamonaviy muammolari va ularning yechimlari, milliy va xalqaro tajribalar, ularni o'qitishdagi dolzarb muammolar va ularning samarali yechimlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Anjumanda sun'iy intellekt tizimlari asoslari, gumanitar fanlarni o'rgatishda raqamli vositalardan foydalanish tajribalari, ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish sohasida bajarilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish, samarali ishlanmalarni amaliyotga tadbiq etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning dolzarb jihatlari, sohada xizmatlarni xalqaro talablar doirasida olib borish, mazkur sohalarga innovatsiya texnologiyalarini va ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Ushbu to'plamning chop etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining ilm-fan sohasidagi farmonlari, qarorlari ijrosini amalga oshirishga bag'ishlangan.

Taqdim etilayotgan to'plam ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassislari hamda amaliyotchi pedagog mutaxassislar hamda keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Bosh muharrir:	Z.U.Sunnatov-Axborot texnologiyalari va menejment universiteti rektori.
Bosh muharrir o'ribosari:	A.H.Berdiyev-Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor
Mas'ul muharrir:	M.X. Allanazorov – "Pedagogika" kafedrası mudiri
Texnik muharrir:	D.Shaxmuradova—"Pedagogika" kafedrası dotsenti
Tahririyat hay'ati a'zolari:	
	G'. Berdiyev – Ilmiy bo'lim boshlig'i
	J. Ibragimov – "Filologiya" kafedrası mudiri
	G'. Karomov – "Tarix" kafedrası mudiri
	K. Xolov – "Matematika" kafedrası mudiri
	A. Aliqulov – "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri
	A. Rustamov – "Axborot texnologiyalari" kafedrası mudiri
	X. Nomozov – "Tarix" kafedrası dotsenti
	T. Ergashev – "Filologiya" kafedrası o'qituvchisi
	L.Berdiyeva – "Pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi
	G.Xolmatova – "Pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi
	M.Uzoqova – "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi
	M.Ergasheva – "Pedagogika" kafedrası o'qituvchisi

Mazkur to'plam Axborot texnologiyalari va menejment universiteti Kengashining 2025-yil 18-oktyabrda navbatdan tashqari 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi. To'plamga kiritilgan ma'lumotlar to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

©Axborot texnologiyalari va menejment universiteti 2025-yil

KIRISH SO‘ZI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli qarorda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilg‘or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dolzarb vazifalarning belgilab berilganligi, 2025 yil, 28-apreldagi PQ-152-sonli qarorida mamlakatimizda qulay inklyuziv ta’lim muhitini yaratish, o‘qitishning innovatsion uslublarini joriy etish va ta’lim muassasalarining kadrlar salohiyatini oshirish orqali maktabgacha va maktab ta’limi tizimida sifat va samaradorlikni oshirish yo‘llarining ko‘rsatilganligi, oliy ta’lim tizimida bilimga chaqoq, kelajakni ko‘ra oladigan kadrlar tayyorlashga zamin yaratmoqda.

Yuqorida qayd etilgan qarorlarda nodavlat ta’lim sohasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish, oliy ta’limdagi o‘quv jarayoni va baholash tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, oliy ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga muvofiqligi ta’minlash, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilarining xorijiy davlatlarda malaka oshirishi va stajirovkadan o‘tishini tashkil qilish kabi ishlarning amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Respublikamizda fan va ta’lim sohasida prezidentimiz boshchiligidagi kelajakni ko‘zlab olib borilayotgan islohotlar bu yo‘nalishda oqilona qadam tashlanayotganligi, strategiyani to‘g‘ri belgilanganligini isbotlab bermoqda. Oliy ta’lim sohasida yetishib chiqayotgan iqtidorli va bilimli yoshlar turli olimpiadalar, musobaqalar, tanlovlar hamda konferensiyalarda muvaffaqiyatli qatnashib, samarali yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar. Ta’lim tizimini zamon talabi darajasida tashkil etish, yoshlarni keng dunyoqarashli, o‘z karyerasini rivojlantiradigan qilib tarbiyalash bizning bosh maqsadimiz hisoblanadi. Bunday maqsadga erishishda har bir shaxs avvalo o‘zining mustaqil fikriga, dunyoqarashiga ega bo‘lishi, tobora raqamlashib borayotgan jamiyatda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalana olishi, tarixiy, falsafiy va psixologik muammolarni hal qilishda o‘z qarashlariga ega bo‘lishi, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishning dolzarb tendensiyalari va ustuvor yo‘nalishlarini tushunib yetishi muhim hisoblanadi.

Shunday ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirilishida bugun Universitetimizda o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman qasman bo‘lsada o‘z hissasini qo‘shadi deb o‘ylayman. Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda AQSH, Hindiston, Rossiya, Belorussiya, Vengriya, Markaziy Osiyo mamlakatlari va boshqa xorijiy olimlarning ishtiroki tahsinga sazovor. Anjumanda ta’lim sohasidagi dolzarb muammolarni yechishga qaratilgan tajribalarni umumlashtirish, hamda ommalashtirish, shuningdek, mavjud muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilish maqsad qilib olingan. Bu ilg‘or tajribalarni almashish, mavjud muammolar ustida izlanishlarni davom ettirish, yoshlarning malakasini oshirishga xizmat qilishiga ishonaman. Konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Raxmonova Dilfuza Tojiddinovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti ta’sischisi,
Pedagogika fanlari doktori

4. YUNESKO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris, 2018.
5. GDPR. General Data Protection Regulation (EU). – Brussels, 2016.
6. Qodirov B. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Nurmatova S. Raqamli pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
8. Bekmurodov O. Internetda xavfsiz xulq-atvor: metodik qo'llanma. – Samarqand, 2021.
9. Karimova D. Raqamli savodxonlik va yoshlar madaniyati. – Buxoro, 2023.
10. UNESCO. Guidelines for Child Online Protection. – Geneva, 2020.

YOSHLAR ONGINING MA'NAVİY-AXLOQIY JIHATIDAN HIMOYASIZLIGI VA YOT G'OYALARGA MOYILLIGINI NAZARIY TAHLILI

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich,

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
+998 (91) 557-17-46 sherzodjonurbonov@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tarqalayotgan manipulyativ ta'sirlarning yoshlar qadriyatlarini, ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy identitetiga salbiy ta'siri nazariy jihatidan tahlil qilingan. Maqolada xalqaro ilmiy yondashuvlar hamda milliy ma'naviy-axloqiy texnologiyalar asosida bu tahdidlarga qarshi kurash strategiyalari bayon etilgan. Tadqiqot yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi va madaniy identitetni mustahkamlash orqali axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish g'oyasi ilgari suriladi. Bu jarayon axborot xavfsizligini nafaqat texnik, balki falsafiy-ma'naviy masala sifatida ko'rishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: Identifikatsion, axborotlashgan jamiyat, "suqonli modernlik", "Erkinlikdan qochish", "xavf jamiyati" nazariyasi, "Ijtimoiy haqiqatning konstruksiyasi", aniq va qat'iy yo'l.

Аннотация: В данной статье теоретически анализируется негативное воздействие манипулятивных влияний, распространяемых через информационно-коммуникационные технологии, на ценности молодёжи, её духовную устойчивость и социальную идентичность. В работе изложены стратегии противодействия этим угрозам на основе международных научных подходов, а также национальных духовно-нравственных технологий. В исследовании выдвигается идея формирования идеологического иммунитета у молодёжи путём развития критического мышления, информационной грамотности и укрепления культурной идентичности. Этот процесс создаёт основу для восприятия информационной безопасности не только как технической, но и как философско-духовной проблемы.

Ключевые слова: Идентификационный, Информационное общество, «Жидкая современность», «Бегство от свободы», Теория «Общества риска», Конструирование социальной реальности, Ясный и решительный путь

Annotation: This article provides a theoretical analysis of the negative impact of manipulative influences disseminated through information and communication technologies on the values, spiritual stability, and social identity of youth. The paper outlines strategies for countering these threats based on international scientific approaches and national spiritual and moral technologies. The study advances the idea of fostering ideological immunity among young people by developing critical thinking, information literacy, and strengthening cultural identity. This process lays the groundwork for viewing information security not only as a technical issue, but also as a philosophical and spiritual concern.

Keywords: Identificational, Information society, Liquid modernity, Escape from Freedom, Risk society theory, The social construction of reality, A clear and determined path.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng ko‘lamda inson ongiga ta’siri, ma’naviy qadriyatlarning nisbiylashuvi va jamiyatda psixologik beqarorlikning kuchayishi sharoitida yoshlar ongining ma’naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi, ularning radikal g‘oyalarga moyilligi tobora murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy muammoga aylanmoqda. Bunday holat faqatgina pedagogik yoki ideologik jihatdan emas, balki ontologik va gnoseologik nuqtai nazardan ham fundamental tahlilni talab etadi. Bu muammo zamonaviy jamiyatda inson shaxsiyati va ongining shakllanish jarayonini texnologik vositalar, mediamakon, axborot oqimi va g‘oyaviy strukturalar vositasida boshqarishga urinishlar fonida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongining shakllanish bosqichida ular uchun identifikatsion tayanchlar, qadriyatlar ierarxiyasi va ijtimoiy ma’naviy me’yorlar o‘z ta’sir kuchini yo‘qotayotgan bir paytda, ongga tashqi axborot maydonining cheklanmagan bosimi ostida radikal, keskin, mutlaq va soddalashtirilgan g‘oyalar kirib borishi uchun qulay sharoit vujudga kelmoqda.

Yoshlar ongining ma’naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi radikal g‘oyalarga moyillikning shakllanishida asosiy psixologik va ijtimoiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Insoniyatni ma’naviy tayanchlardan ajratib qo‘yadigan omillardan biri zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridir. M.Castells “axborotlashgan jamiyat ijtimoiy tuzilmalarni tubdan qayta quradi, bunda shaxs o‘zining identitetini himoya qiluvchi barqaror ma’naviy kontekstlardan uzilib qoladi” deya ta’kidlaydi[1.23.]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘pincha an’anaviy qadriyatlardan begonalashib, o‘z ma’naviy-axloqiy asoslarini global axborot maydonida topishga majbur bo‘ladilar. Ammo bu maydonning beqarorligi va manipulyativ tabiatini hisobga olsak, natijada ular radikal g‘oyalarga ochiqroq bo‘lib qoladilar.

H.Arendt totalitarizm fenomenini tahlil etar ekan, “insonlarning ijtimoiy aloqalardan ajralishi, yolg‘izlik va ma’naviy himoyasizlik holati ularni ideologik manipulyatsiyaga eng qulay obyektga aylantiradi” deya yozadi[2.317.]. Bu yondashuv yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi radikal mafkuralarning singib kirishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratishini ko‘rsatadi. Arendtning fikridan kelib chiqib, aytish mumkinki, texnologiyalar orqali kuchaytirilgan yolg‘izlik va individualizatsiya jarayoni radikalizmning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoshlar ongining ma’naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi radikal g‘oyalarga moyillik jarayonida nafaqat shaxsiy ruhiy omillar, balki ijtimoiy va texnologik muhit bilan ham uzviy bog‘liqdir. Z. Bauman o‘zining “suqonli modernlik” haqidagi konsepsiyasida “zamonaviy insonning hayoti tobora suyuq va beqaror bo‘lib, barqaror qadriyatlardan ajralishi ularni yangi, ko‘pincha radikal yo‘nalishlarga ochiq qiladi” deya ta’kidlaydi[3.17.]. Bu fikr yoshlarning ma’naviy-axloqiy himoyasizligini ijtimoiy muhitning beqarorligi va axborot oqimlarining keskin ko‘payishi bilan izohlashga imkon beradi. Yoshlar ko‘pincha o‘zining axloqiy tayanchlarini yo‘qotgan sharoitda radikal diskurslarda o‘ziga mos keluvchi “barqaror ma’naviy asos” izlashga kirishadi, bu esa ularni manipulyatsiya uchun yanada sezgir qiladi.

E. Fromm esa “Erkinlikdan qochish” asarida “inson erkinlikdan qo‘rqadi, chunki u yolg‘izlik va beqarorlik tuyg‘ularini kuchaytiradi, shuning uchun odamlar ko‘pincha o‘z erkinligini radikal mafkuraviy tizimlarga topshiradilar” deb yozadi[4.138.]. Frommning fikri yoshlar ongida ma’naviy-axloqiy zaiflik erkinlik va mustaqillikni to‘g‘ri idrok etmaslik bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, texnologiyalar erkinlik imkoniyatlarini kengaytirgandek tuyulsa-da, aslida nazoratsiz axborot oqimlari insonning tanlov qilish mas’uliyatini og‘irlashtiradi, bu esa psixologik himoyasizlikni yanada chuqurlashtiradi.

U.Beck esa “xavf jamiyati” nazariyasida “modern jamiyat o‘zining xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqarkan, yangi global xavflar — ekologik, texnologik va ideologik — insoniyat ongini doimiy xavotir ostida qoldiradi” deya qayd etadi[5.54.]. Bu yondashuv yoshlarning ma’naviy-axloqiy himoyasizligi radikal g‘oyalar orqali “xavfga qarshi kurash” vositasini izlash jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Yoshlar radikalizmni ko‘pincha ma’naviy qoniqish va xavfsizlikni tiklash mexanizmi sifatida qabul qilishlari mumkin.

Yoshlar ongining ma'naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi masalasi falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilganda, ularning radikal g'oyalarga moyilligi zamonaviy axborot texnologiyalari va global mafkuraviy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ayon bo'ladi. P. Berger va T. Luckmann "Ijtimoiy haqiqatning konstruksiyasi" asarida "inson ongining mazmuni doimo ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ jarayonlar orqali shakllanadi, shaxsning dunyoqarashi tashqi diskurslar ta'siridan mustaqil emas" deb ta'kidlashadi[6.71.]. Bu yondashuv yoshlar ongining ma'naviy-axloqiy jihatdan zaifligi ko'pincha ijtimoiy kommunikatsiyaning sifatiga va unga singdirilayotgan ideologik "signal"larga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Demak, global tarmoqlar orqali tarqatilayotgan radikal diskurslar ularning ongiga tezroq singib ketadi, chunki ijtimoiy tajriba va ma'naviy immunitet yetarlicha mustahkam emas.

Yoshlar ongining ma'naviy-axloqiy jihatdan himoyasizligi, aslida, ularning ruhiy dunyosida yuzaga keladigan bo'shliq va bu bo'shliqni turli mafkuraviy oqimlar, jumladan, radikal g'oyalar to'ldirishga urinishi bilan bog'liqdir. Z. Bauman modernlik va xavotir fenomenini sharhlab, "zamonaviy inson doimiy ravishda tanlovlar ichida yashaydi, lekin bu tanlovlarning me'yoriy asoslari tobora noaniq bo'lib bormoqda" deya ta'kidlaydi[7.14.]. Uning fikricha, yoshlar aynan shu noaniqlik sababli radikal diskurslarni "aniq va qat'iy yo'l" sifatida qabul qilishga moyil bo'ladi. Bu fikrni nazariy asos sifatida olsak, ma'naviy jarayonlar zaiflashganda texnologiyalar orqali yoyilayotgan radikalizm o'ziga xos "psixologik panoh" vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar kesishganda, ma'lum bo'ladiki, yoshlarning radikalizmga moyilligi axborot makonida ma'naviy jarayonlarning texnologik manipulyatsiyaga bo'ysunishi natijasida yuzaga kelmoqda. Shu sababli ma'naviy immunitetni shakllantirish texnologik davrda eng muhim strategik vazifaga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Castells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell. – B. 23.
2. Arendt, H. The Origins of Totalitarianism. – New York: Harcourt, Brace & Company. – B. 317.
3. Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press. – B. 17.
4. Fromm, E. Escape from Freedom. – New York: Farrar & Rinehart. – B. 138.
5. Beck, U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage. – B. 54.
6. Berger, P., Luckmann, T. The Social Construction of Reality. – New York: Anchor Books. – B. 71.
7. Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press. – B. 14.

TALABALARDA AXBOROTLARNI RAQAMLI TAQDIM ETISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Suropov Ixtiyor Maydonovich

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi.

e-mail: kayumovanasiba2468@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarda axborotlarni raqamli taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish uchun, adabiyotlar tahlili, axborotni raqamli taqdim etish tushunchasi, multimodallik, raqamli hikoya taqdimoti, tarix fanidan axborotlarni raqamli taqdim etish bosqichlari, natijasi va xulosalar yoritilgan

Kalit so'zlar. Axborotni raqamli taqdim etish, taqdim etish vositalari, raqamli taqdimot, multimodallik, raqamli hikoya taqdimoti, raqamli taqdim etish bosqichlari

Abstract. This article discusses the literature analysis, the concept of digital information presentation, multimodality, digital narrative presentation, stages, results and conclusions of digital information presentation in history in order to develop a methodology for developing digital information presentation skills in students.

MUNDARIJA

№	MUALLIF	MAQOLA NOMI	BET
	<i>Kirish soʻz</i>		3
1.	Sunnatov Z. U.	<i>Taʼlimni raqamlashtirish muhitiga talabalarning moslashuvchanligi</i>	4
2.	Nurullayeva Sh. U	<i>Refleksiv texnologiyalari va ulardan foydalanishning pedagogik shartlari</i>	7
3.	<i>Ягунова Т.А. Черникова С. М.</i>	<i>Особенности работы с детьми в условиях инклюзии на занятиях по изобразительному искусству</i>	12
4.	<i>Вохидов Ш. Х.</i>	<i>Проблемы цифровой трансформации и искусственного интеллекта при преподавании истории цивилизации востока и их решения</i>	17
5.	Elmirzayev S. E.	<i>Korporativ boshqaruv prinsiplari va korporativ boshqaruv modellari xususiyatlari</i>	25
6.	<i>Даниленко И. А.</i>	<i>Культурологический и исторический контекст формирования художественного концепта потерянное поколение</i>	27
7.	<i>Aghayeva J. Q. Mammadova M. Quliyeva A.A.</i>	<i>Enhancing mifranceltary english education through artificial intelligence</i>	34
8.	<i>Сун Вэй</i>	<i>Наследие конфуция в танце: эстетика и воспитание в китайской культуре</i>	39
9.	<i>Jorge Filipe da Silva Gomes Rustamov Sh.X.</i>	<i>Advancing cognitive architectures in artificial intelligence: theoretical foundations and practical challenges</i>	41
10.	<i>Uzakov Z. U. Begulov O. U.</i>	<i>Gamifikatsiya yondashuvi yordamida dasturlash koʻnikmalarini shakllantirish</i>	45
<i>I SHOʻBA: RAQAMLI JAMIYATDA ZAMONAVIY OʻQITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI</i>			
1.	<i>Ганчерёнок И. И Горбачёв Н. Н Сохибов А. Р</i>	<i>EVENT-менеджмент в учреждениях образования</i>	49
2.	<i>Ганчерёнок И.И. Горбачёв Н.Н. Сохибов А.Р.</i>	<i>Моделирование образовательных инноваций</i>	53
3.	Raximov Z. T	<i>Taʼlimni raqamlashtirish muhitida talabalar oʻquv-bilish faoliyatini faollashtirish</i>	57
4.	Kayumova N. A	<i>Raqamli muhitda boʻlajak oʻqituvchining individual-psixologik xususiyatlarini shakllantirish.</i>	60
5.	<i>Колчеданцева Н. Витальевна Е.</i>	<i>Проблема мотивации использования ресурсов искусственного интеллекта в учебной деятельности студентов гуманитарных направлений подготовки</i>	64
6.	<i>Бояркина Ю.А</i>	<i>Особенности организации воспитательного процесса в дополнительном образовании детей</i>	68
7.	<i>Даниленко А.П</i>	<i>Механизмы поиска гармонии между традициями и инновациями в национальном</i>	72

		<i>декоративно-прикладном искусстве</i>	
8.	Aslonova O.P	<i>Rivojlantiruvchi ta'limda pedagoglarning strategik yondashuvi</i>	74
9.	Сохибов А. Р	<i>Интерактивные методы обучения в цифровой среде</i>	79
10.	Jurayev B. X	<i>Raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligi sohasida mehnatni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish</i>	83
11.	Rustamov A.B	<i>Strategies for developing cybersecurity competencies in the electronic learning environment</i>	87
12.	Berdiyev G'.R	<i>Fraktal geometrik yondashuvlar asosida arxitektura shakllarining tahlili va qo'llanish istiqbollari</i>	91
13.	Berdiyeva G.Sh	<i>Talabalarni ijodiy salohiyatini aksiologik yondashuv asosida rivojlantirishning didaktik ta'minoti</i>	95
14.	Sattorova M.A	<i>Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati</i>	99
15.	Ortiqov M. S.	<i>Modern methods of teaching electrical engineering and electronics</i>	100
16.	Ishkobilov F. X.	<i>Development stages of an offline class schedule application in python programming language</i>	102
17.	Kamolova N. I	<i>Raqamli ta'lim tizimida ilmiy tafakkurni rivojlantirishning aksiomatik asoslari</i>	107
18.	Qayumova G.A	<i>Matematika va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish</i>	109
19.	Boymatova M. R.	<i>Bo'lajak o'qituvchilarda emotsional barqarorlikni shakllantirishda reflektiv yondashuvning pedagogik asoslari</i>	112
20.	Xolov K.N Turdiyev U.Q	<i>Pedagogika va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligi.</i>	115
21.	Xolmonov I.N Xolov K.N Bobilov N.X	<i>Raqamli pedagogika sharoitida zamonaviy o'qitish texnologiyalarining samaradorligini oshirish usullari</i>	118
22.	Пардаева Г.А Ахматова С.З	<i>Формирование визуального мышления и культуры студентов с использованием мультимедийных технологий</i>	121
23.	Kayumova N. A. Chorshanbiyeva A. A.	<i>Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi</i>	124
24.	Kayumova N.A. Primova.Z.A.	<i>Ta'lim tizimida CLIL texnologiyasi</i>	126
25.	Kayumova N.A. O'lmasova D.	<i>Interaktiv metodlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish</i>	130
26.	Pardayeva G.A Turdiyeva D.X	<i>Multimedialli texnologiyalar asosida STEM laboratoriyalarini jihozlashning zamonaviy yondashuvlari</i>	132
27.	Pardayeva G.A Turdiyeva S.F	<i>Raqamli ta'lim tizimida video kontent sifatini real vaqt rejimida monitoring qilish</i>	136
28.	Abulov M. O,	<i>Uchinchi tartibli differensial tenglamaga qo'yilgan</i>	140

	<i>Abulova M.M</i>	<i>nolokal masala</i>	
29.	<i>Berdiyeva G. Sh Omonova B.B</i>	<i>Zamonaviy ta'limda maktab o'quvchilarida oilaga nisbatan qadriyatli munosabatlarni shakllantirish shart sharoitlari.</i>	144
30.	<i>Ortiqov M.S Kenjayeva A.A O'ngboyeva M.Y</i>	<i>Telekommunikatsiya texnologiyalarini o'qitishda pedagogik texnologiya turlari va dars modullari</i>	147
31.	<i>Pardayeva G.A Andaqulov T. X Bo'riyeva G. B</i>	<i>Zamonaviy raqamli o'qitish texnologiyalarida geometrik almashtirishlarga asoslangan fraktal modellash tirish metodikasini rivojlantirish</i>	149
32.	<i>Rustamov Sh.X Raimov O.M</i>	<i>Telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarini rivojlantirish sharoitida innovatsion texnologiyalarining o'rni va ahamiyati</i>	153
33.	<i>Xolmonov I.N. Xolov K.N. Bobilov N.X.</i>	<i>Raqamli pedagogika sharoitida zamonaviy o'qitish texnologiyalarining samaradorligini oshirish usullari</i>	155
34.	<i>Xolov K.N Bobilov N. X</i>	<i>Ta'limda raqamli transformatsiya: onlayn va oflayn o'quv jarayonining integratsiyasi</i>	158
35.	<i>Ишкobilов Ф.Х. Ахматова С.З.</i>	<i>Введение в краткое объяснение терминов информатики и информационных технологий</i>	160
36.	<i>Berdiyev G'. R Kenjayeva T Mirzayev S.M</i>	<i>Raqamli texnologiyalar asosida me'morchilikdagi fraktal tuzilmalarni kompyuterli modellash tirish metodikasi</i>	163
37.	<i>Berdiyev G'.R Ochilov A.N Aliyev M.J</i>	<i>Raqamli ta'lim muhitida multimedia videolar sifatini baholash algoritmlarini ishlab chiqish va ularning o'qitish samaradorligiga ta'siri</i>	166
38.	<i>Sattorova M.A</i>	<i>Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'limdagi o'rni va ahamiyati</i>	170
39.	<i>Xujayarova N.S. Shermamatova M</i>	<i>Bo'lajak pedagoglarni integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish</i>	174
40.	<i>Тауатов. А.К. Алтухов А.А. Мустафоева НМ. Алмирзаева С.Ж</i>	<i>Исследование основных закономерностей роста многослойной системы Si/cos₂/Si</i>	176
41.	<i>Ishkobilov F.X Atoev A.K</i>	<i>O'quv jarayoni uchun moslashuvchan veb-tizimni ishlab chiqish bosqichlari</i>	178
42.	<i>Rustamov A.B O'tkirova D.M</i>	<i>Raqamli boshqaruv tizimlarida axborot resurslari qiymatini baholash muammolari va yechimlari</i>	181
43.	<i>Ishkobilov F.X Nurova D.D</i>	<i>Multimedia dasturlari asosida talabalarning injiniring sohasidagi bilimlarini oshirish va shakllantirish texnologiyasi</i>	185
44.	<i>Raxmonov B.N O'ngboyeva M.Y</i>	<i>Raqamli sharoitda talabalarning axborot kompetentligini fanlararo aloqadorlikda oshirish imkoniyatlari</i>	188
45.	<i>Rustamov A.B Mamatqulova D.F</i>	<i>Xususiy maktablar onlayn axborot tizmini takomillashtirish masalalari</i>	191
46.	<i>Eshmurodava G.X Otanazarova N.Sh</i>	<i>Maktabgacha ta'limda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish xolati va istiqbollari</i>	195
47.	<i>Nurmamatov Z.Sh Xodiyeva N.Sh</i>	<i>Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi</i>	200

48.	Nurmamatov Z.Sh Xaitova E.B	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi	202
49.	Бахритдинова Д. 3.	Роль современных цифровых образовательных технологий в обеспечении индивидуализации и интерактивности обучения	205
50.	Atayeva M.I	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida jamoaviy tajriba almashinuvning fasilitatsiya va moderatsiya asosidagi mexanizmlari	210
51.	Mamadaliyeva Z.R	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work based learning metodikasi qo'llash	213
52.	Qurbonova S.S,	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish	215
53.	Eshmatova G.Z	Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda ta'lim-tarbiya jarayonida fasilitatsion yondashuvni rivojlantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlari.	217
54.	Xamidjonova M.X	Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	221
55.	Xayitova N.N.	Boshlang'ich ta'limda steam texnologiyasining ahamiyati	224
56.	Abdullayeva G.R	Enhancing students' methodological training through adequate pedagogical models: methodological foundations and international experience	230
57.	Umarova G.B	Boshlang'ich sinflarda xalqaro tadqiqotlarni joriy etishning afzalliklari	235
58.	Xalimova S.A	Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitish metodikasini rivojlantirish	238
59.	Murtazayeva N.K	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tibbiy biokimyo fanini interaktiv pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish	240
60.	Raxmonova G.N Mavlonova Z.A	Raqamli texnologiyalarni boshlang'ich ta'limda qo'llash imkoniyatlari	241
61.	Eshmatova G.Z Samadova F.A	Bo'lajak tarbiyachi pedagoglarda fasilitatsion yondashuvni rivojlantirish yo'llari.	244
